

“GO‘RO‘G‘LINING TUG‘ILISHI” DOSTONI BADIYYATIDA XALQ MA’NAVIYATINING NAMOYON BO‘LISHI

Dildora NORALIYEVA

mustaqil tadqiqotchi

Qarshi davlat universiteti

Qarshi, O‘zbekiston

Annotatsiya

Maqolada milliy o‘ziga xoslik, milliy ma’naviyatni shakllantirishda “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonining o‘rni beqiyosligi tahlil qilingan.

Tayanch so‘zlar: ma’naviyat, o‘zbek ayoli, hayo, kechirimli, kechirimlilik, lingvoma’naviyat, evfemizm, “yumshoq” ifoda.

ПРОЯВЛЕНИЕ ДУХОВНОСТИ НАРОДА В ХУДОЖЕСТВЕННОМ СВОЕОБРАЗИИ ДАСТАНА «РОЖДЕНИЕ ГУРУГЛЫ»

Дилдора НОРАЛИЕВА

Независимый исследователь

Каршинский государственный университет

Карши, Узбекистан

Аннотация

В статье анализируется важная роль дастана «Рождение Гуруглы» в формировании национальной идентичности и национальной духовности.

Ключевые слова: духовность, узбекская женщина, скромность, прощение, снисходительность, лингводуховность, эвфемизм, «мягкое» выражение.

Ma’lumki, xalq ma’naviyati badiiy asarlarda ham o‘z aksini topadi. Jumladan, xalq dostonlari bu borada bitmas-tuganmas manba bo‘lib xizmat qiladi. Xalq dostonlari orasida Go‘ro‘g‘li turkumidagi dostonlarda xalqimiz qadriyati, urf-odatlar, milliy-madaniy qarashlari o‘z ifodasini topgan. Turkumning birinchi dostoni hisoblangan “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”da ko‘p uchraydigan xalqimizga xos jihatlardan biri uning ma’naviy dunyoqarashidir. Ma’naviyat so‘ziga “Ma’naviyat (asosiy tushunchalar lug‘ati)”da shunday izoh beriladi:

“MA’NAVIYAT (arab. ma’no, ma’nolar majmuasi) – moddiy hayot bilan doimo yonma-yon yuradigan, inson, xalq va jamiyat hayotining ajralmas qismi bo‘lgan ijtimoiy hodisa; ilmiy-falsafiy termin. Hozir ilm-fanda ma’naviyat “Ma’anaviyatshunoslik”, “Ma’naviyat asoslari”, “Ma’naviyat tarixi va nazariyasi”, “Axloqshunoslik”, “Nafosatshunoslik” kabi fanlarning asosiy kategoriyasi hisoblanadi” [2;345]. O‘zbek xalqida oilaviy munosabatlarda xotin kishining

turmush o'rtog'iga nisbatan muloyimtabiatlilik bilan munosabatda bo'lishi, uni boshqalar oldida izza qilmaslik, ovozi baland qo'yib gapirmaslik, doimiy itoatda bo'lish, hurmat qilish va qo'llab-quvvatlash oila tinchligi, farovonligini ta'minlovchi kalit sifatida qaraladi. Shunday ekan, badiiy adabiyot namunasi bo'lgan og'zaki yoki yozma asarlar xalqning madaniy saviyasini ko'rsatuvchi ko'zgu hisoblanadi. Masalan, O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasi "Qanoat" hikoyasida qahramonning onasi o'g'illarining aybi bilan kaltak yegan bo'lsa-da, uni qo'shnisidan yashirishga harakat qilishi zahirida ham o'zbek ayoliga xos bo'lgan yuksak ma'naviy fazilatni ko'rishimiz mumkin. Xususan, dostonida Rustambekning Go'ro'g'lini uyga olib kelish epizodi bor. "Ana endi Rustambek yig'lay-yig'lay, Go'ro'g'lini olib keldi, Rustambekning xotini erining yuz-xotirini qilib, o'rnidan turib, "voy , bolam" deb bag'riga bosdi, quchoqlab ko'krigiga oldi". Parchadan ham ko'rinib turibdiki, dabdurdan ko'chadan begona bolani yetaklab kelgan turmush o'rtog'iga, begona bolaga ijobiy munosabatda bo'lishida erining "yuz-xotiri" sababi shunday yo'l tutganini ko'ramiz. Parchada qo'llangan *yuz-xotir qilmoq* iborasining ma'nosi lug'atda quyidagicha izohlangan:

YUZ-XOTIR QILMOQ kim? kimni? 1. noqulay vaziyatlarda hurmat yuzasidan kimnidir izza qilmaslik. *Odobsizlik qilgan bu bolaning tanobini tortib qo'yardim-u, otasini yuz-xotir qildim.* so'zlashuv uslubi. 2. o'rni kelganda qilgan yaxshiliklarini qaytarish. *Qo'shnining bir paytlar oilamizga qilgan yaxshiliklarini yuz-xotir qilib, quruq qo'l bilan qaytarishni lozim topmadim, yordam berdim.* so'zlashuv uslubi [3;576]. Garchi lug'atda iboraning ikki ma'nosi qayd etilgan bo'lsa-da, dostonidan olingan parchada iboraning birinchi ma'no bilan birga eriga nisbatan hurmatni, bu orqali esa uning oiladagi mavqeyi balandligiga ishora qiladigan lingvoma'naviy jihatni ko'rishimiz mumkin. E'tiborli jihati shundaki, parchada aks etgan ma'no faqat shu bilangina cheklanmay, balki bu orqali yillar davomida xalqimiz ma'naviyatida ko'zga tashlanadigan og'ir-bosiqlik, bolajonlik, muhtojlarga yordam berish, bag'rikenglik, mehmondo'stlik, bir so'z bilan aytganda, o'zbek ayollari ma'naviyatini namoyon etishni, ham maqsad qilgan

desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bu esa o'rnak olsa arziydigan jihatdir. Chunki "Ta'lim yo'nalishi esa, bir tomondan, "ma'naviyat" lisoniy kategoriyasi unsurlari mohiyatini o'quvchilarga singdirish, ikkinchi tomondan, ushbu tizimga kiruvchi til ifodalarining ma'naviy mohiyati ta'lim orqali ular shaxsiy ma'naviyatini yuksaltirish mexanizmini takomillashtirish vazifalarini o'z zimmasiga oladi" [1]. Dostonda xalq ma'naviy sifatlarini ko'rsatuvchi jihatlar birgina shu bilan cheklanmaydi. Asarda Gajdumbek va Ravshanning o'z yurtlariga ketishga qaror qilishi, buni Shohdorxonning odamlaridan berkitish maqsadida Bibi Hilolga ham aytmaslikka majbur bo'lishlari, shundan so'ng podshoning odamlari Bibi Hilolni o'ldirmoqchi bo'ayotganini eshitgan Rustambek uning oldiga boradi. "Birovlar Rustambekni Gajdumbekning quli der, birovlar o'g'li der edi. Bu gapni eshitib, Rustambekning yuragi "jiz" etib ketdi, ildam-ildam yurib, tikka Bibi Hilolning oldiga yetdi. Rustam qarasa, Bibi Hilol cho'pday qotib, somonday sarg'ayib ketibdi. Buni ko'rib, Gajdumbekning tuzini hurmat qilib, Bibi Hilolga qarab, bir so'z dedi..." ("Go'ro'g'lining tug'ilishi", 55-bet) Parchada qo'llangan *tuzini hurmat qilmoq* iborasiga diqqat qarataylik. Garch bu ibora aynan keltirilmagan bo'lsa-da, iboralar lug'atida keltirilgan *tuz(i)ni ichmoq* (kim? kimning?) xonadon ovqatidan bahramand bo'lmoq. Varianti: *tuz ichmoq* kim? *tuz(i)ni yemoq.*), *tuzini totmoq* (kim? qayerning? shart-sharoiti bilan bevosita, amalda sinashta bo'lmoq) *tuz(i)ni oqlamoq* (kim? kimning? sarf-mehnat zoye ketmaganini o'z faoliyati bilan isbot qilmoq.) frazeologik birliklarida yetakchi leksik birlik hisoblangan *tuz* so'zi dostondan olingan parchada, muxtasar aytganda, yaxshiliklarini unutmaslik, doimo yodda tutish ma'nosini berayotgani kunday ravshandir. Demak, bunda xalq ma'naviyatining yana bir jhati – zarra bo'lsa-da qilingan yaxshilikni e'tirof etish, uni yaxshilik bilan qaytarishga urinish o'z aksini topadi. E'tiborlisi shundaki, mana shu epizodning davomi o'laroq Rustambek Bibi Hilolga seni elating (Yovmitga) eltib qo'yaman deb shunday deydi:

...*Sen yo'liqding dushmanlarning qahriga,*

Ot chidamas achchiq qamchi zahriga.

Eson-omon mingashtirib, Hiloloy,

Yurgin, obketayin Yovmit shahriga!

Hiloloy bu soʻzni eshitib:

– Bir kun oʻlmoq, bir kun tugʻilmoq. Men bir xizmatkorim bilan mingashib borsam, odamlar, qarindoshlarim Gajdumbekka, sen oʻzing qochib kelib eding, sening singling Bibi Hilol begona bir odam bilan mingashib keldi, deb aytar. Akamning va yorimning yuzi tuman boʻlar. Bu bilan borganimdan bormaganim yaxshiroq. Men qarindoshlarimni maʼraka-oʻltirishlarda yuzini tuman qilganimdan shu yerda gʻarib boʻlib oʻlganim yaxshi, dedi.

Buni eshitib Rustambek aytdi:

– Erta bilan Shohdorxonning odamlari soʻyib oʻdiradi.

– Hiloloy:

– Oʻldirsa, xudoning ishi-da. Men oʻlimga roziman, – dedi. (“Goʻroʻgʻlining tugʻilishi”, 56-bet) Rustambek Bibi Hilolga achinayotgan, chin dildan yordam berishni xohlayotgan boʻlsa-da, Hiloloy akasi Gajdumbek, turmush oʻrtogʻi Ravshanning boshqalar oldida uyalishini, taʼna-malomatga qolishini istamagani, bunday omon qolishdan oʻlimni afzal bilayotgani ham oʻzbek xalq ayollariga xos uzoqni oʻylash, oqilalik, or-nomuslilik kabi fazilatlarni yana bir tasdiqlaydi. Buning isboti oʻlaroq, parchada “Akam va yorimning yuzi tuman boʻlar” gapida “yuzi tuman boʻlmoq” yoki “yuzini tuman qilmoq” iborasining maʼnosiga qarash kifoyadir (tuman bu yerda qora maʼnosida):

“YUZ(I) QORA BOʻLDI kimning? – YUZ(I)NI QORA QILMOQ kim? kimning? nojoʻya xatti-harakatlari bilan izzat-obroʻsini yoʻqotmoq, el-yurt dashnomiga uchramoq. *Tanish-bilishlarga sharmisor, ota onasi oldida yuzi qora boʻldi.* S.Zunnunova. Gulxan. *Oʻldirilgan hayot uchun zolimlardan qasos olmasak, xalq oldida, avlod oldida yuzimiz qora boʻlsin!* M.Ismoiliiy. “Fargʻona tong otguncha” [3;578]. Oʻzbek tilining izohli lugʻatida bu ibora *aybdor, gunohkor holatli* [5;298] maʼnosini ifodalashi qayd etilgan. Demak, bu yerda Bibi Hilolning oʻzidan ham koʻra oilasi, yaqinlari shaʼnini (*qarindoshlarimni maʼraka-oʻltirishlarda yuzini tuman qilganimdan shu yerda gʻarib boʻlib oʻlganim yaxshi*) oʻylayotgani, buni amalga oshirishda oʻlimdan ham qoʻrqmayotgani oʻquvchida

achinishdan ham ko‘ra ko‘proq faxr, g‘urur tuyg‘usini paydo qiladi.

Dostonni lingvoma‘naviy jihatdan tadqiq etishda xalqimiz e‘tiqodi, din va falsafiy ta‘limotlarning o‘rni ahamiyatlidir. Chunki “...o‘zbek xalqi ma‘naviyati rivojlanishining turli bosqichlarini aniqlashda diniy e‘tiqod va falsafiy ta‘limotlar tarixiy tadriji, almashinuvidan kelib chiqib yondashish mumkin” [4;97]. O‘zbek xalqiga xos bo‘lgan ma‘naviy qadriyatlar faqat diniy e‘tiqod bilangina shakllangan deyish o‘rinli bo‘lmaydi. Ma‘naviyatning shakllanishi har bir xalqning kundalik turmush tarziga, ijtimoiy munosabatlardagi tutumlariga, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan umuminsoniy qadriyatlarga tayanadi, albatta. Xususan, dostonda qizilboshlar tomonidan kaltaklab olib ketilayotgan Ravshanni ko‘rgan Hiloloy holati shunday tasvirlanadi: Xunxor shohning vakili: “Bu juda o‘r turkman ekan”, – deb arkka chiqib, Ravshanbekni qul qilib sotishga hukmnoma olib kelib,... qul bozoriga qarab haydab keta berdi. Hozir Hiloloy shipday bo‘lib, bo‘y yetib qolgan edi. Ravshanbekni qizilboshlar haydab borayotganiga, bir tomondan, Hiloloyning ichi achib rahmi kelsa, bir tomondan asli turkman yigiti ko‘ziga issiq ko‘rinib ketdi. Endi men Gajdumbek akamga aytayin. Hovlida xizmatkor yo‘q, bugun bir qul sotib oling, deyayin. Akam bozorga borib shu turkman yigitga ko‘zi tushar. Xudo ko‘ngliga bir rahm solsa , shu Turkman yigitni sotib olib keltirsa. Hovlimizda ko‘p azob ko‘rmay, musofir bo‘lmay yurar edi, – deb bundan boshqa bir qancha shirin o‘ylarni o‘ylab turgan edi. (“Go‘ro‘g‘li”, 20-bet). O‘zbek xalqida balog‘at yoshiga yetgan qizlarning sevgi, muhabbat haqida gapirishi, kimnindir yoqtirib qolsa, uni oshkor etishi odatiy hol hisoblanmaydi. Qizlarimizdagi ibo-hayoning bunga yo‘l qo‘ymasligi milliy mentalitetimizga xos xususiyatdir. Dostondan olingan parchada “ko‘ziga issiq ko‘rinib ketdi” jumlasini orqali doston aytuvchi bevosita Hiloloyning Ravshanni yoqtirib qolganini, unga moyillik paydo bo‘lganini birgina ibora bilan ifodalaydi. Yoki parcha davomida “bundan ham boshqa bir qancha shirin o‘ylarni o‘ylab turgan edi” jumlasini orqali ham Hiloloy misolida butun o‘zbek qizlariga xos bo‘lgan hayo ochib beriladi. Hayo so‘zi lug‘atda shunday izohlanadi:

“HAYO (arab. uyat, sharm, ibo; or-nomus, kamtarlik, adab) – nojo‘ya,

noma'qul xatti-harakatdan tiyilish hissi, uyat, sharmni anglatuvchi termin. Hayo hissi aslida "or", "andisha" va "ibo" kabi ma'naviy fazilatlar bilan yaqindir. Bu terminning axloqiy mohiyati nafosat bilan uyg'unlashib ketadi" [2;788]. Ko'rinib turibdiki, hayo tushunchasi keng qamrovlidir. U biz e'tibor qaratayotgan Hiloloyning o'z ko'ngil kechinmalarini ochiq-oydin aytmaslik tuyg'usini ifodalash bilan birga umuman olganda axloqiylik sifatiga zid bo'lgan har qanday xatti-harakatni rad etish, undan uyalish, or-nomus qilish tuyg'usi hamdir. Zero, "Hayo – Sharq xalqlariga xos bo'lgan axloqiy go'zallikning g'oyat ko'rkam va noyob ko'rinishi. Ayni paytda hayo milliy ruhiyat bilan yo'g'rilgan tuyg'udir. Hayo erkaklarga nisbatan ayollar tabiatiga ko'proq mos bo'lib, qizlik hayosi, kelinlik hayosi, ayollik hayosi, onalik hayosi kabi tuyg'ularda o'z ifodasini topadi" [2;789]. Ko'rish mumkinki, Hiloloyning Ravshanbek haqidagi o'ylari akasi Gajdumbek oldida oshkor etilmasligi, unga asl maqsadini to'g'ridan-to'g'ri aytmay hovlidagi ishlardan qiynalayotgani, bu yerga bir xizmatkor lozimligini aytishida qizlik hayosi yaqqol namoyon bo'lsa, yana bir jihati, uning kalataklanayotgan Ravshanga achinishi uning insoniy fazilatlarga ham egaligini ko'rsatadi.

Xalqimizning o'ziga xos ma'naviy fazilatlaridan yana biri kechirimlilikdir.

Kechirimli va kechirimlilik so'zlariga lug'atda quyidagicha izoh beriladi:

"KECHIRMLI 1. Kechirish mumkin bo'lgan, kechirsa bo'ladigan. 2. Kechiradigan xususiyatga ega, kechiruvchi.

KECHIRIMLILIK kek saqlamaslik, kechira olish fazilati" [6;828].

Rustambek tomonidan Yovmitga, o'zining yurtiga jo'natilgan Go'ro'g'li otasi, tog'asi, qarindoshlari bilan uchrashadi. Shunda vazirlarining eslatuvi bila Urayxon podsho Go'ro'g'lini yaqinlari bilan birga saroyga taklif etib elchi yuboradi. Lekin Ravshanbek elchiga "sakkiz yildan beri meni yo'qlagani yoq, Urayxon podshoga men endi qarindosh bo'libmanmi", deb bormasligini aytadi. O'g'li Go'ro'g'li gina saqlash yomonligini, mehmonga aytuvchining so'zini yerda qoldirish yaramasligini (*So'zi o'lgani – o'zi o'lgani odamning*) aytib, borishni iltimos qiladi va Urayxon podshonikiga borishadi, u yerda ko'p izzatlar ko'rishadi.

Aytish mumkinki, bunda, garchi yosh bo'lsa-da, Go'ro'g'lining kechirimli bo'lishga da'vat qilishi xalq ma'naviy fazilatining yana bir qirrasini namoyon qiladi.

Gajdumbek Hiloloyning iltimosi bilan uyga bir xizmatkor – Ravshanni olib keladi. Biroz muddat o'tgach, uni yaxshi ko'rib qolgan Hiloloy “mehmonxonaning sufasidan turib, hovlini supurib yurgan Ravshanbekka qarab, bahona qilib, bir necha joydan timsol keltirib” shunday deydi:

Issiq quyosh kamarlarni kesibdi,

Shu yoqqa turkmandan shamol esibdi,

Bir nimadan bag'rim mening isibdi,

Ko'ngillar bahriga bahor bo'libdi (22-bet).

Qiz bolaning yigitga o'z sevgisini ayta olmasligi, bu qiz bola uchun naqadar mushkul ish ekanligini mana shu misralardan ham bilib olamiz. Lekin qizning bu muhabbatni, yigitda ko'ngli borligini ramzlar vositasida bayon qilishida ham lingvoma'naviy fazilatni darrov ilg'aymiz. Fikrni ramzlar vositasida bayon qilish haqida gapirilar ekan, bu she'riy parchada “ba'g'ri isimoq”, “ko'ngillarga bahor bo'lmoq” jummalari bevosita uyg'onish fasli bahor bilan birga har bir tirik mavjudotda paydo bo'ladigan tabiiy intilishni, uyg'onish, sevishtirish, sevilish istagini namoyon qiladi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Ravshan Hiloloyning dardi ishqdan ekanini bilib turganiga, o'zi ham uni yoqtirib qolganiga qaramay, xizmatkor bo'lgani uchun meni teng ko'rmaydi deb “men bir qul bo'lsam, tabib bo'lmasam, bilmasam, senda qanday dard bor, unga qanday davo bor” (23-bet) tarzida javob beradi. Buni eshitgan Bibi Hilol: “Menga bu qizilbosh yurtining tabiblari kerak emas, menga faqat sen tabiblik qila olasan”, – deydi. Parchadagi “faqat sen tabiblik qila olasan” jumlasini qiz muhabbatini bayon qilishning eng chiroyli ko'rinishi hisoblanadi. Demak, bu ham qahramonimiz ma'naviy dunyosining naqadar go'zalligini bildiradi va Bibi Hilol orqali har qanday holatda ham iboni unutmaydigan o'zbek qizlarining umumlashma obrazini ko'z oldimizda gavdalantiradi.

Asarda Rayhon arab tomonidan olib qochib ketilgan Xoljuvonni olib

kelish uchun borgan Go‘ro‘g‘liga Xoljuvonning: Olib borsang, menga Turkman kulmasmi, Unda yangang malomatga qolmasmi, So‘zimga quloq sol, shoshma, Go‘ro‘g‘li, Endi olib ketishing uyat bo‘lmasmi? (“Go‘ro‘g‘li” 64-b) deya javob berishi, Xoljuvon qaytib borgan taqdirda ham Ahmad sardor bilan turmushi turmush bo‘lmasligini, buni el ham malomat qilib uning yuziga solishi mumkinligini anglagan holda ketmaslikka qaror qilishi o‘zbek xalq ayollarida oilaviy munosabatlarda umumjamiyat qabul qilgan mezonlarga amal qilish, agar bunda xatolik sodir bo‘lsa, uni yanada murakkablashtirmaslikka harakat qilish yaqqol namoyon bo‘ladi. Garchi Xoljuvonning o‘g‘irlab ketilishida uning zarracha aybi bo‘lmasa ham, Rayhon arabni xushlamasa ham, garchi Shirvonga kelganidan (uch yil)dan buyon unga “qo‘lidan bir kosa suv bermagan” bo‘lsa ham, jiyani Go‘ro‘g‘li bilan ketishni xohlamaydi. Sababi, uning tili bilan aytganda, “Agar meni olib ketsang, Yovmitga yetsang, ma’raka-majlislarda odamlar: “Go‘ro‘g‘libek xo‘p ish qilibdi, uch yildan beri Rayhon arab xotin qilib yurgan chechasini olib kelibdi, – deydi. Mening kasofatim senga tegadi. Davlatingiz, martabangiz ellarning ichida past bo‘ladi, “Chechangizni Rayhon arab unday qilgan, bunday qilgan”, – deb dushmanlaring(iz) aytadi”. Xoljuvonning javobidan uning taqdirga tan bergani, yaqinlarini bir nomusga qo‘ygani yetmaganday, yana ta’na-malomatga qoldirishni istamagani, o‘zini ma’nan qurbon qilayotgani o‘zbek xalq ayollaridagi yana bir fazilatni ko‘rsatib beradi. Shu o‘rinda aytish kerakki, dostonida qo‘llangan ayrim evfemik birliklar ham xalq madaniy saviyasini, nutqiy madaniyatini, ma’naviy jihatlarini namoyon etuvchi elementlardir. Zero, tabu va evfemizmlar xalqning madaniyati, urf-odatlar, turmush tarzi va ruhiyati bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, tilning ijtimoiy va pragmatik vazifalarini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Bu birliklar nafaqat tilning leksik imkoniyatlarini, balki uning jamiyatdagi o‘rni va muloqotdagi rolini ham aks ettiradi. Shu birgina parchada “qo‘limdan bir kosa suv bermagan bo‘lsam”, (chechangizni Rayhon arab) “unday qilgan, bunday qilgan” evfemizmlari nafaqat o‘zbek ayollari nutqida, balki butun xalq leksikasida oiladagi er-xotin munosabatlarini aynan atash uyat hisoblanishini, bu esa milliy mentalitetimizga, ma’naviyatimizga yot holat ekanligini dalillaydi.

Negaki nutqning ifoda shakli, undagi axloqiy va estetik omillar insonning shaxsiy ma'naviy darajasini belgilaydi. Nutq qashshoqligi, qo'pol til ishlatish, behayo so'zlardan foydalanish shaxsning ma'naviy qashshoqlashuviga olib keladi. Aksincha, insonning nutqi boy, aniq va mantiqiy bo'lsa, bu uning tafakkuri va axloqiy qadriyatlarining yuksakligidan dalolat beradi. Yoki Gajdumbekning uyida xizmatkor bo'lib ishlayotgan Ravshan va Bibi Hilol munosabatini tasvirlar ekan baxshi: "...Ravshanbekning bo'yniga qo'lini solib, tilladan bo'lgan tomiga olib ketdi. Ravshanbek qoldi uyalib. Taxmonda sandiq ustidagi yaxshi ko'rpalardan olib, tilla kursining ustiga solib, to'shakning ustiga chiqib, Gajdumbek kelmay, dunyoning g'am-g'ussasi esidan chiqib, ikkovi bir odam bo'lib ketdi", deya tasvirlaydi. Ushbu parcha "ikkovi bir odam bo'lib ketdi" evfemik birligi asarda xalqimiz leksikasida qo'pol eshitiladigan, tarbiyasizlikni anglatadigan so'z yo jumla bilan ifodalanmasligi, buni o'quvchiga anglatishda emotsionallikni ham yo'qotmaslik maqsadida "yumshoq" ifodadan foydalanilganini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, dostondagi shu va shunga o'xshash jihatlar xalqimizning azal-azaldan shakllangan ma'naviy olamini namoyon qiladi, buni o'qigan yosh avlod esa shu an'anani, milliy o'zlikni yo'qotmaslik lozimligini anglaydi. Natijada kelajakda ijtimoiy munosabatlarda me'yoriylikni ta'minlashga, nutqiy madaniy saviyaning o'sishiga, kishilarning ruhiy-ma'naviy dunyosiga ijobiy ta'sir qilishga erishiladi. Chunki ma'naviy qadriyatlarga sadoqat jamiyat a'zolarini umumiy maqsadlar atrofida birlashtiradi va ijtimoiy ziddiyatlarning oldini olishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Менглиев Б.Р. Тил бағридаги маънавият: лингвوماънавиятшунослик ва унинг истиқболлари ҳақида. // "Маърифат" газетаси, 2018 йил, 25 апрель, 33-сон.
2. Nazarov K. va boshq. Ma'naviyat (asosiy tushunchalar lug'ati). – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2021. – 816 b.

3. Rahmatullayev Sh. va boshq. O'zbek tili frazeologik lug'ati – Toshkent: G'afur G'ulom, 2022. – 636 b.
4. Erkayev A. Milliy g'oya va ma'naviyat – Toshkent: Ma'naviyat, 2002. – 240 b.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati: 6 jildlik, 6-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2022.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati: 6 jildlik, 2-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2022.